



TALABALARDA FIKRLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMI

Yerlepsova Xadisha Xudaybergenovna

*Nukus davlat pedagogika instituti Umumiy
pedagogika va psixologiya kafedrasi
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning mustaqil fikrlash faoliyatini aktiv jarayonga aylantirishning psixologik tomonlari yoritilgan. Shuningdek maqolada fikr o'zi nima ekanligiga, talaba shaxsi hayotidagi fikriy rivojlanlikning adaptatsion ko'rinishi, bugungi kun qiyofasi bilan o'zaro bog'liqlik asosida talabalar tafakkurida mustaqillik va kreativlik tushunchalarini ommalashtirish vositalari ko'rsatilgan..

Kalit so'zlar: o'quv jarayoni, kognitiv kompetensiya, ta'lim, shakllantirish, rivojlantirish, aqliy qobiliyat, zaruriyat, natija.

Pedagogik texnologiyani tushunishning negizi- bu ta'lim oluvchi bilan uzviy aloqa o'rnatish, aniq belgilangan maqsadlarga qaratishdir. Subyektiv va obyektiv aloqa ya'ni ta'lim oluvchi bilan ta'lim beruvchi o'rtasidagi izchillikka asoslangan aloqa pedagogik texnologiyaning asosi hisoblanadi va bu o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak. Ma'lumki, o'qituvchi o'quv mashg'ulotini barcha talabalarga bir xil tushuntiradi. Ular o'zlashtirishi uchun berilgan va hamma uchun bir xil bo'lgan ta'lim mazmuni, ular tomonidan har xil qabul qilinadi. Ya'ni bir talaba ma'lum o'quv fanidagi mavzuni «yaxshi» o'zlashtirsa, boshqasi «a'lo» o'zlashtirishi yoki aksincha»qoniqarli»darajada bo'lishi mumkin bo'lsa ba'zi talabalar ushbu mavzuni umuman o'zlashtirmasligi ham mumkin. Savol tug'ilishi tabiiy, o'zlashtirish darajasidagi bunday har xillikning oldini qanday olish mumkin? Buni ko'pincha ikki xil yo'l bilan bartaraf etish mumkin.

1. O'quv materialini o'zlashtira olmagan talabalarni kursdan-kursga qoldirish va o'rgana olmagan ma'lum o'quv siklini qayta takrorlashga etish.

2. O'zlashtirish darajasi bir xil bo'lgan talabalarni bir guruhda birgalikda o'qitish. Ammo jahon tajribasi, har bir talaba yuksak darajada bilim olishi, uni tadbiq etishi, raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishi uchun ta'lim muassasasining pedagog va psixologlari zimmasidagi eng katta mas'uliyatligini ko'rsatmoqda. Ayni shu vazifani hal etish uchun pedagogik texnologiyalar oilasiga XX-asrning 60-70 yillarida yangi bir texnologiya kirib keldi. Fanda bu-Blum taksonomiyasi deb nom oldi. Dastlab taksonomiya tushunchasini izohlab o'tamiz. Taksonomiya-yunoncha so'zdan olingan bo'lib» tartib bilan joylashtirish»degan ma'noni bildirib, obyektlarni ularning o'zaro bog'liqligiga asoslangan holda, murakkablashib boruvchi ierarxik tarzda tizimlashtirish, sistemaga solishga aytiladi. O'quv maqsadlariga muvofiq shaxs faoliyati sohalari bir necha guruhga bo'linadi. Ular:



- A) Kognitiv soha (bilishga oid)
- B) Affektiv (hissiy-emotsional)
- C) Psixomotor (harakatga oid) sohalardir.

Blum taksonomiyasi esa kognitiv ya'ni bilim olish sohasiga kiruvchi o'quv texnologiyasi sanaladi. Benjamin Blum (1913-1999) amerikalik pedagog-psixolog, mashhur Blum taksonomiyasining asoschisi. U juda ko'plab pedagogik tadqiqotlar o'tkazadi, tadqiqoti markazida o'zlashtirishi sust yoki umuman o'zlashtirmaydigan talabalar turadi. Olimning tahlil qilishicha, talabaning qobiliyati uning o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati bilan o'lchanadi. Biroq bu sur'at hamma uchun o'rtacha ko'rinishga kelgan sharoitda emas, balki mazkur talaba uchun optimal tanlangan sharoitda o'rnatildi. Muallif talabalarning qobiliyatini ularning o'quv materialini o'zlashtirishlari uchun cheklanmagan vaqt berilgan sharoitida o'rgandi. Shunda talabalarni quyidagi kategoriyalarga bo'lish imkoniyati yuzaga keldi:

1. Iqtidorli talabalar.
2. O'zlashtirishi past bo'lgan talabalar.

Iqtidorli talabalar guruhning 5%ini tashkil etib, o'quv materiallarini yuqori sur'atda egallab, topshiriqlarni o'z vaqtida a'lo darajada bajarishadi. Ikkinchi tip dagilardan talabalar esa davlat tomonidan belgilangan standartni ham bajarishda qiyinchilikka duch kelishadi va hatto berilgan o'quv materialini o'rganish uchun yetarli muddat berilganda ham uddalay olishmaydi. Blum taksonomiyasi aynan ikkinchi tipdagi talabalarning maksimum bilimlarni egallashiga qaratilgan. B. Blum taksonomiyasining mezonlari (o'quv maqsadlarining asosiy kategoriyalari) quyidagilardir:

Bilish (Knowledge level) Eng quyi daraja bo'lib, bilimlardan xabardor bo'lish, yodda saqlash, aytib berishdan iboratdir. Bunda oddiy dalillardan boshlab yaxlit nazariyalarni xotirada saqlash tushuniladi, talaba qoida tushuncha va tamoyillarni biladi va ta'riflay oladi.

Tushunish (Comprehension level) Ushbu darajada olgan ma'lumotlarni jamlash va u haqida mushohada yuritish, so'z bilan ifodalash qobiliyati amalga oshiriladi. Talaba qoida, dalillarni tushunib talqin qila oladi.

Qo'llash (Application level) Bunga qoidalar, nazariyalar, tamoyillarni amaliyotga tadbiiq etish, qo'llash tushuniladi.

Tahlil ya'ni analiz (Analysis level) Butunni elementlarga bo'lishni amalga oshirish ko'nikmasi bo'lib bunda talabalar o'rganilayotgan o'quv materialini alohida tarkibiy qismlarga bo'lib uning tafsilotini aytib beradi, elementlar o'rtasidagi tafovutlarni tahlil qila oladi.



Sintez (Synthesis level) Mavjud bilimlarga tayangan holda ,tarkibiy qismlarga bo'lingan elementlar o'rtasida yaxlitlik va bog'liqlikni yaratib,voqea va jarayon to'g'risida umumiy xulosa chiqarishdir.Bu bosqichda talaba olingan bilimlardan unumli kombinatsiya qilib,yangi konstruksiya yaratadi. Masalan:insholar yozadi,tajriba o'tkazish rejasini tuzadi,ma'lumotlarni saralab turkumlashtiradi.

Baholash (Evaluation level) Bu eng yuqori oltinchi daraja hisoblanib, shaxsning nazariy bilim,amaliy ko'nikma va malakalariga egaligini baholashdir. U oldingi besh o'quv maqsadlarining hammasini egallashni va ma'lum mezonlar asosida baho berishni nazarda tutadi. Blum taksonomiyasini qo'llash identifikatsiyalangan o'quv maqsadlarini (natijasini qat'iy va aniq o'lchash mumkin bo'lgan o'quv maqsadlari)ni ifodalashda qiyinchilik tug'ilganda juda katta yordam beradi va bu yordamida umumiy o'quv maqsadlarini shakllantirish mumkin.

O'quv fani maqsadlarini bu texnologiya asosida aniqlashtirish ikki bosqichda bajariladi. Birinchi bosqichda- fan o'qitilishining umumiy maqsadi aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa kundalik va joriy o'quv faoliyatining maqsadlari aniqlanadi. Qismlarga ajratib aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini jadval shaklida rasmiylashtiriladi: ustunda fanning bo'limlari, qatorida esa talabaning bu bo'limlarni o'zlashtirishdagi intellektual faoliyatining asosiy turlari joylashtiriladi. O'quv maqsadlarini to'la-to'kis aniqlanadigan, o'quv jarayonini esa takrorlanuvchan bo'lishi uchun, bu maqsadlarga erishish mezonini yaratish zarurati tug'iladi.

Xullas , o'quv maqsadlarini to'g'ri ifodalash , unga erishganlik haqida fikr yuritish garovidir.Blum taksonomiyasining har bir toifasida talaba bajarishi mumkin bo'lgan o'quv harakatlarini quyidagicha ifodalash mumkin.Bilishda-talaba ma'lumotlarni eslab qoladi,axborot beradi takrorlaydi, ta'riflab bera oladi yozadi,ko'chiradi.Tushunishda esa ma'lumotlarni tushuntiradi,isbotlay oladi,qayta ishlaydi, ifodalay oladi aks ettiradi, izohlaydi.

Qo'llashda-ma'lum o'quv materialini tadbqiq etadi,undan foydalanadi,qayta ishlab cchiqib.ularni amalga oshiradi va namoyish etadi.Analiz qismida-ma'lumotlarni saralaydi keraklisini ajratib tanlab olib ,turkumlashtirsa,Sintez qismida ularni o'zaro bog'lab umumlashtiradi va sistemalashtiradi.So'nggi baholash qismida esa ilmiy bilimlarni tashxislaydi,baho berib taqqoslaydi va o'z fikrini sharxlab beradi

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, har bir boshlanayotgan ish faoliyatida muomala madaniyati yuqori bo'lishligi, hamkorlik aloqalari to'g'ri yo'lga qo'yilishi jarayonni oson rivojlanishiga asos bo'ladi. Shining uchun ham har shaxsning har qanday shakllanishida muloqotning ahamiyati katta. Muloqot faqat insonlarga xos bo'lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlari bilan muloqotda bo'lish ehtiyoji



tug'iladi. O'zaro muloqot esa, tabiiyki, kishilik jamiyati vujudga kelishining eng asosiy unsuri hisoblanadi.

Muloqot — odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ (o'zaro aloqaga doir) jihati hisobga olinadi. Muloqot shaxslararo munosabatlarning shunday ko'rinishidirki, unda odamlar birbirlari bilan o'zaro aloqaga kirishadilar va o'zaro axborot almashadilar. Muloqotga kirishish shaxsning ruhiy holati, dunyoqarashi, xarakteri, qobiliyati, nutq boyligi kabi sifatlarga bog'liq hisoblanadi. Muloqot tashqi ijobiy ta'sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi.

Shaxs shakllanishida muloqotning ahamiyati haqida bir necha psixolog olimlar o'z fikrlarini bayon qiladilar. Jumladan, rus psixologi B.G. Ananiev "Odam bilishning obyektlari" asarida bu masalani chuqur tahlil qilgan. U bilimlarnin egallash muloqot orqali amalga oshirilishini, agar kishilar o'zaro bir-birlariga axborot uzatmasalar, tajribalarini muloqot orqali almashmasalar ular rivojlanmay qolishlari haqida so'z yuritadi. B.G. Ananev fikricha, "Muloqot ijtimoiy va individual holatdir. Shuning uchun nutq bilanuzviu bog'liq, kommunikativ vazifani bajarishda pantomimika, imo-ishoralar muloqot shakllari sifatida yuzaga chiqadi" Tajribali psixolog A.A.Bodalev esa shaxs o'yinda, o'qishda, muloqotda, ya'ni faoliyatning turli sohalarida o'zinning o'rnini bilishi zarurligi uqtiradi. U o'zining "Shaxs va jamiyat" kitobida bu masalaga katta e'tibor beradi. Shuningdek, u bu muammolar kam o'rganilganligini ta'kidlaydi.

O'zlashtirish monitoringi aynan shu taksonomiya orqali vujudga keladi ya'ni o'qituvchilarga o'quv maqsadlarini aniqlashtirishga va o'zaro bog'liq bo'lgan ketma - ketlikda joylashtirishga erishadi va bunday ifodalangan o'quv maqsadlari o'qituvchi uchun talabalarning bilish darajasining holatini aniqlab, tushuntirish, natija tomon to'g'ri yo'nalish olishga imkon beradi. Bundan tashqari, test topshiriqlari tuzuvchilar uchun o'quv material elementlarini o'quv maqsadlarining qaysi toifasiga muvofiqligini aniqlashda ham qulaylik yaratadi. Uni qo'llash natijasida identifikatsiyalanuvchi o'quv maqsadlarini aniqlash mumkin bo'lmagan darajalarda, ularni nisbatan umumlashgan shaklda ifodalab, test topshiriqlari tuzish imkoniyati yaratiladi. Yoki avval o'quv maqsadlari taksonomiya toifalari bo'yicha umumiyroq shaklda aniqlanib, so'ngra ularga mos keluvchi va yakuniy natijani yaqqolroq ifodalovchi fe'l tanlanib, test topshiriqlarini tuzish mumkin. Qisqa qilib



aytganda, Benjamin Blum taksonomiyasi yordamida ta'limiy muvaffaqiyatga erishish darajasi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova V.M. va boshk. Mustaqil fikrlash. - T.: Sharq.-2000.- 112 b.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.-T.: Universitet, 2002.- 96 b.
3. Karimova V.M., Sunnatova R. «Mustaqil fikrlash» o'quv qo'llanmasi bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish uslubiyoti.-T.: Sharq, 2000.- 16 b
4. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2007.1-2 kitob.
5. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
6. G'oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2002
7. Khasanova, G. (2023). Some Considerations on Nonverbal Communication (No. 11076). EasyChair.

